

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KASBGA YO'NALTIRISH
VA KASB TANLASHIGA KO'MAKLASHISH****Abdullayeva Xosiyat Artikova**

Xorazm viloyati Urganch shahar 1-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali muallif boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh davri psixologiyasi, ularning kasbiy qiziqishlari xaqida so'z yuritib o'tgan. Maqola bilan tanishar ekansiz kasbiy bilim- borasidagi savollaringizga javob olasiz.

Kalit so'zlar: Malaka, ko'nikma, tajriba, iqtidor, istedod.

Hozirgi kunda jamiyatda inson omili eng asosiy jabxadir. Jamiyat farovonligi uchun shaxs kamoloti muhim omil xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti, muhtaram Sh.Mirziyoyev ta'lim sohasini islox qilishga bag'ishlangan yig'ilishlarning birida yosh avlodni kasbga yo'naltirish masalasiga to'xtalib o'tdilar. " Aynan kasbga yo'naltirish ishlari eng muhimi vazifalarimizdan biridir. Agar kasbiy ta'lim o'z vaqtida to'g'ri yo'lga qo'yilsa ta'lim tizimimizda ijobiy o'zgarishlar bo'ladi. Agar buning aksi bo'lsa nafaqat ta'lim tizimida balki jamiyatning barcha soxalarida salbiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Hozirgi zamon va kelajak bu yoshlar qo'lida. Biz yoshlarni qo'llab quvvatlasak, ularga keng imkoniyat yaratib bersak, kelajakda albatta buning natijasini ko'ramiz" bu so'zlar zamidida kattadan katta mano bor. Inson bu hayotda tug'ilar ekan u o'zini individlik chog'idan rivojlana boshlaydi. Ulg'ayadi, ulg'ayish davomida undagi kasbiy qiziqishlari xam rivojlanib boradi.

Xar bir ota ona farzandini yaxshi kasb egasi bo'lishini xoxlaydi. Buning uchun kasbga yo'naltirish ishlarini ilk bolalik davridan boshlab yo'naltirish lozim.. Farzandining orzulari, uning qiziqishi, rivojlanishi, uning hatti xarakatlari va ko'pincha o'yin faoliyati



orqali sezilib turadi. Shunga muvofiq kasbga yo'naltirish ishlari maktabda boshlang'ich sinflik vaqtidan boshlab yo'lga qo'yilishi lozim. Bolalar ayrimda kino qaxramonlari, ota onasi va yoki ustoz, qo'yingki atrof muhitga qarab o'zlari taqlid qilish orqali kasbiy qiziqishlarini namoyon qiladi. Asosan o'yin faoliyati orqali xam sezilib qoladi. O'yin o'ynash davomida qaysidir bola shafyorlik obrazida bo'lsa, qaysidir Nola shifokorlik ro'lini maxorat bilan ijro etadi. Bola 1- sinfga qadam qo'yar ekan o'zining ustoz bilan muloqot jarayonida faol ishtirok etadi. Uning hatti xarakatlarini o'zlashtiradi. Ko'p tomonlama ustoz kabi bo'lishiga xarakat qiladi. Olib borilgan tadqiqotlarda keltirilishicha boshlang'ich sinf o'quvchilarining 50 % miqdori ustozining kasbini, 25 % miqdori ota onasi kasbini, 15% miqdori jamiyatdagi obro'li kasbni, qolgan 10 % miqdori esa yanglish kasblarni egallash istagini bildirishadi. Bu istak bola ulg'ayib borgani sayin o'zgarib turadi. Shundan ko'rinib turibdiki bolada qaysi kasb to'g'risida ko'proq ma'lumot bo'lsa, uning qiziqishi xam shu kasbga bog'lanib ketadi. Shuning uchun xam bolalarga ko'proq zamonaviy kasblar, kasblarning turlari, ular xaqida yetarlicha malumotlar berilishi zarurdir.

Inson ushbu hayoda yashar ekan doimo yaxshi Yashash, o'zidan yaxshi nom qoldirishni xoxlaydi. Siz tarbiya qilayotgan farzand sizning nomingizni, avlodingizning davomchisidir. Aynan shu sababli xam siz farzandingiz qiziqishlariga, uning kasbiy tanloviga doimo e'tibor bilan qarashingiz muhimdir. Ollox biz insoniyatni ongimiz, aql zakovatimiz sababli hayonot olamidan farqli etib yaratdi. Shunday ekan jamiyatni aqlli, tarbiyali, atrofga foydasi tegadigan yaxshi kasb egalari bilan boyitish bu barchamizning vazifamizdir. Shu vazifamiz sababli biz ota onalik nomiga munosib Deb topilamiz. Shunday ekan bu imkoniyatni doimo saqlab qolish lozim.

Har bir ota-ona farzandining baxti kelajagi ertangi kunini o'ylab hamisha yaxshi tilaklar, orzu intilishlar va maqsadlar bilan yashaydi. Shunday ekan oilada farzandlarni ma'naviy-ma'rifiy, yuksak barkamol etib voyaga yetkazishida kelajakda yaxshi bir kasbning egasi bo'lishida barchamiz birdek mas'ulmiz. Aynan shuning uchun xam hozirgi kunda maktablarda kasbga yo'naltirish ishlari psixologik xizmat sohasining



bir qismi sifatida ifoda etilmoqda va jadal rivojlanib kelmoqda. Bola tug'ilib, o'sish davomida ota-onadan quvvat oladi. Atrof muhit bilan muloqot qila boshlaydi. qachonki jamiyatda yoshlarni kasbiy kamolotga to'g'ri yetaklansa shu davlat ravnaqi uchun kurashuvchi, xar soxada o'zining bilmli egalari mavjud bo'ladi. Qachonki buni aksi bo'lsa jamiyatda o'z hayotidan, kasbidan, ish faoliyatidan norozi shaxslar ko'payadi. Kasbiy yo'naltiruv ishlari to'g'ri va sifatli bo'lmasa yaxshi shifokor aslida o'qituvchi, yaxshi nonvoy- kosib bo'lib ishlashi mumkin. Bu jamiyatdagi ko'zga ko'rinmas muammolardan biri sanaladi. Bu muammolari yechimini topishda doimo biz ota onalar bilan bir qatorda pedagog, psixolog hodimlarga xam suyanamiz. Chunki kasbiy ko'nikmalarni shakllanishi bu inson ruhiyati bilan bog'liq jarayon hisoblanadi. Shaxsning Komil inson bo'lib yetishishida turli xildagi omillar sabab bo'ladi. Inson o'z sevgan kasbi bilan band bo'lsa qilgan ishidan ko'ngli to'ladi, faoliyatidan xursand bo'ladi. Ming afsuski oramizda o'zi xoxlamagan kasb bilan mashg'ul bo'lib yurganlar xam yo'q emas. Bu narsa jamiyatdagi kamchiliklardan biri sanaladi. Bu kamchiliklarni bartaraf etsak, albatta ijobiy natijalarga erishamiz. Yoshlar bizning kelajagimiz ularning ta'lim olishi kasb egallashlariga ko'mak berish bizning vazifamizdir. Kasbiy intilish insonni shu tanlagan kasbini mutaxasisi sifatida gavdalantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida butun bilish jarayoni jadal rivojlanish davrida bo'ladi. Qo'yingki oddiy qilib aytganda boshlang'ich sinf o'quvchilarida miyya o'chog'i faol ochilgan vaqtdir. Shu sababli ularda diqqat, xotira, sezgi , idrok va tafakkur rivojlanishining eng yuqori pallasiga to'g'ri keladi. Shuning boisdan yoshlikda olingan bilm- toshga o'yilgan naqsh kabidir Deb bejizga aytishmagan dono xalqimiz. Kasbiy kamolotga erishish uchun inson ko'p yillar davomida ilm izlashi, o'z ustida ishlashi lozim. Bolalarni ilk bolalikdan boshlab kasbiy ko'nikmalarini malakaga aylanishiga undash lozim. Bolalar 1- sinfga kelib partada to'g'ri o'tirishni o'rganishi bu Ko'nikma bo'lsa, yillar o'tib bu Ko'nikma avtomatlashgan xolatiga malaka Deb yuritiladi. Kasbiy tanlov xam xuddi shundaydir. Malakali pedagog va aqilli ota ona boladagi qobiliyatni ko'nikmaga, ko'nikmani esa malakaga aylantira oladi. Farzand bu ota ona ko'zgusi hisoblanadi. Ota



ona o'zidagi ijobiy va salbiy sifatlari bilan farzandlariga o'rnak bo'lib boradi. E'tibori sababli boladagi qiziqishlarini payqay oladi. Boshlang'ich sinf bu ko'p tomonlama ilm va tajribalarni faol o'zlashtira oladigan yosh davri hisoblanadi. Xali bu davrida u qadar inqirozlar, fiziologik, psixologik o'zgarishlar kuzatilmayotgan davrdir. Shuning provardida bolaning o'z xoxish istagi bilan unda turli xil soxalarga bo'lgan qiziqishlarini ko'ra bilish, hamda to'g'ri yo'naltirish mumkin. Kasbiy maxoratni oshirishda ilmiy nazariy asos bilan bir qatorda amaliy tajribalar juda muhim hisoblanadi. Buyuk xitoy maqolida shunday so'zlar keltirilgan. "Aysang unutaman, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarsam anglab yetaman" ushbu maqol yuqorida keltirilgan so'zlarimizning yaqqol isbotidir. Kundan kunga rivojlanib, chiroy ochib borayotgan bu yurtimizga foydasi tegadigan, o'z kasbining xaqiqiy mutaxasis egasi bo'lgan yosh avlodimiz Soni ko'payaversin. Zero: vatanga keng fikrli, dunyoqarashi boy, malakali mutaxasis kadrlar zarurdir. ...

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Avloniy "Turkiy guliston yohud axloq"
2. O'.Hoshimov " Daftar xoshiyasidagi bitiklar". 2015. Toshkent
3. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri". Toshkent. Xalq merosi. 1993-yil.
4. E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi". 2010-yil.
5. Nishonova Z, Alimova G "Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi". Toshkent. 2013-yil.